



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTIDA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

**Abdurashidov Adxamjon**

Qo`qon davlat universiteti

Maktabgacha tarbiya kafedrası v.b. professori

[adxamabdurashidov@gmail.com](mailto:adxamabdurashidov@gmail.com)

**Annotatsiya:** mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy kamolotida o'zbek xalq og'zaki ijodining ahamiyati yoritilgan, shuningdek o'zbek xalq og'zaki ijodining ertak, maqol, xalq o'yinlaridan foydalanib, ularda insonparvarlik, kamtarlik, rostgo'ylik kabi ma'naviy-axloqiy xislatlarni tarbiyalash mazmuni nazariy jixatdan o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, axloq, kamolot, xalq, ijod, og'zaki, insonparvarlik, o'zbek

**Аннотация:** в данной статье подчеркивается важность узбекского народного устного искусства в духовно-нравственном развитии детей дошкольного возраста, а также используются сказки, пословицы и народные игры узбекского народного устного искусства для теоретического осмысления содержания воспитания духовно-нравственных качеств, таких как гуманность, смирение и честность.

**Ключевые слова:** духовность, нравственность, развитие, народное искусство, устное искусство, гуманность, узбек.

**Abstract:** This article emphasizes the importance of Uzbek folk oral art in the spiritual and moral development of preschool children, and also uses fairy tales, proverbs and folk games of Uzbek folk oral art for theoretical understanding of the content of education of spiritual and moral qualities, such as humanity, humility and honesty.

**Key words:** spirituality, morality, development, folk art, oral art, humanity, Uzbek

O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zbek xalqining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyat bo'lib, o'zbek xalqining an'anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og'zaki badiiy ijodi, ya'ni folklor deb ham yuritiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan xalq musiqasi, xalq teatri, xalq o'yinlari va raqslari, qo'g'irchoqbozlik, dor va yog'och oyoq o'yinlari, xalq tasviriy va amaliy bezak san'ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlarini qamrab oladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'z yaratilish tarixiga ega bo'lib, ijodiy jarayonida ko'pchilik ishtirok etgan, shuning uchun bu ijodning muallifi bo'lmagan. O'zbek xalqi o'zining turmush tarzini, yashash sharoitlarini, ijtimoiy mehnat darajalarini shakllantirgan va avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tkazib, doimiy ravishda mukammallashtirib boravergan. Natijada jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotida sayqallanib bizgacha yetib kelgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya bola shaxsini ma’naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Yosh avlodda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash pedagogdan chuqur pedagogik va psixologik asoslarni bilishni talab qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy kamoloti murakkab jarayon bo’lib, axloqiy va ma’naviy bilimlarni ongli ravishda o’zlashtirib olishni talab etadi. Shundagina bolalar atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishadi. Natijada ma’naviy-axloqiy tarbiya bolalarga ma’naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to’g’risida tizimlangan bilimlarni beradi, ularda ma’naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo’lgan ehtiyoj yuzaga keladi va ma’naviy-axloqiy ong shakllanadi. Bu jarayon izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab ma’naviy-axloqiy tarbiya berib borish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishini taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- bolalarda axloqiy tasavvurlar va xatti-harakatlarni shakllantirish;
- xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish;
- bolalarda axloqiy his-tuyg’ularni tarbiyalash;
- xulqdagi salbiy sifatlariga barham berish.

Bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bu vositalar quyidagilardan iborat:

- har xil bayramlar
- ijtimoiy hayot voqealari
- bolalar adabiyoti, musiqa, oyin
- ommaviy axborot vositalari – oynai jahon, radio va boshqalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy kamolotida yuqorida qayd etilgan vositalar bilan bir qatorda o’zbek xalq og’zaki ijodining naminalari ham alohida ahamiyatga ega bo’lib, quyidagicha guruxlash mumkin:

1-guruh. Bolalarda ma’naviy-axloqiy ongni, tasavvur va bilimlarni shakllantirishda, ularni bajarish hissini uyg’otishga qaratilgan folklor janrlari

2-guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan folklor janrlari

3-guruh. Ma’naviy-axloqiy his tuyg’ular va munosabatlarni rag’batlantirishga qaratilgan folklor janrlari.

Yuqorida keltirilgan barcha gurux folklor janrlari orqali bolalarga ma’naviy-axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o’rgatiladi. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Folklor janrining qaysi turi bo’lishidan qat’iy nazar ularga qo’yiladigan asosiy talablar mavjud. O’zbek xalqining har bir og’zaki ijodi namunalaridan pedagog foydalanganda albatta bu talablarni nazarda tutishi shart. Bu talablardan quyidagilardan iborat:

- bolalarning yaxshilik, yomonlik to’grisidagi tasavvurlarini e’tiborga olish;

- ma’naviy-axloqiy xulq-atvor no’rmalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o’zlarini faol qatnashtirish;
- har bir bolaning his-tuyg’usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bo’lish;
- bolani no’rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e’tiborsizlik qilish.

O’zbek xalqining har bir og’zaki ijodi namunalaridan o’z o’rnida izchillik bilan kompleks ravishda foydalanish ijobiy natija beradi. Samarali natijaga erishishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish shart. Masalan, kichik yoshli bolalarda ma’naviy-axloqiy tasavvur va bilimlarni o’yin orqali yetkazish maqsadga muvofiq. Bu borada bolalarni yoshiga mos o’zbek milliy xalq o’yinlaridan foydalanish ularda ma’naviy-axloqiy va jismoniy tasavvurlarini paydo bo’lishiga tezda ta’sir etishi va bilimlarni yaxshi o’zlashtirib olishiga imkon beradi. Milliy o’yinlar bolalarning jismonan va ruhan sog’lom etib tarbiyalash bilan birga ularda xalqimizga xos bag’rikenglik, jamoaviylik, jipslik tamoyillarini qaror toptirishiga ham ko’maklashadi. Milliy o’yinlar xalqning eng sevimli ma’naviy tadbirlaridan biri bo’lib maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “G’ozlar va oqqushlar”, “Kuchlilar va chaqqonlar”, “Arqon tortish”, “Quvlashmchoq” “Durra”, “Otib qochar”, “Uchtalik to’ptosh”, “Xakkalakam sharti” kabi o’zbek xalq o’yinlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu o’yinlar vositasida bolaning shaxs sifatidagi ijtimoiy faolligi oshiriladi va bola ma’naviy va jismoniy kamoloti tarbiyalanadi. “Arg’imchoq”, “Tortishmchoq”, “Oq terakmi ko’k terak”, “Bekinmchoq” va shunga o’xshash o’zbek xalq milliy o’yinlari bolalarni yoshlikdan otalikka, onalikka, mehnatga, hayotga tayyorlab boradi va ularda mehr-oqibat, chidamlilik, zukkolik, chaqqonlik kabi qator fazilatlarini rivojlantiradi. Zero, o’zbek milliy o’yinlari o’zining hayotiyligi, har tomondan puxta o’ylab yaratilganligi uchun ham katta-yu kichik va hatto xotin-qizlar tomonidan ham sevib o’ynaladi. Ota-bobolarimiz o’z farzandlarini qiyinchiliklar oldida dovdiramalik, o’z-o’zini tahlil qilishga, qo’rqmaslik ruhida tarbiyalab, muammolarni mustaqil hal etishga o’rgatib kelganlar. Ko’p yillar davomida ortirgan malakalariga tayanib, o’z farzandlariga o’yinlar orqali tarbiya berganlar va shuningdek, aqliy o’yinlardan foydalanish yo’l-yo’riqlarini ham ko’rsatib berganlar.

Bolalar tomonidan o’zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ongli ravishda tushunib yetishlari uchun ta’limiy faoliyatlar yordamida, keyinchalik esa o’yin, mehnat jarayonlarida, sayr, kechki soatlarda, musatqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning ma’naviy-axloqiy kamolotida tarbiyalanadigan ma’naviy-axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o’rin tutadi. O’zbek xalq og’zaki ijodida insonparvarlik o’zbek xalqining o’z milliy xususiyati, milliy tabiati, ya’ni milliy mentaliteti bilan ifodalanadi va Vatan, xalq, ota-ona, aka-uka, opa-singil, o’gay ota, o’gay ona, ustoz, shogird kabi tushunchalarda aks etadi, Odamlar o’rtasidagi munosabatlarning asosini adolat, andisha, haqiqat kabilar tashkil etadi, masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi. Ertakdagi obrazlar, voqea-hodisalar asosida bolalar yaxshi ishlarni qilishga o’rgatib boriladi. Kichik bolaga yaxshi bo’l deganimiz bilan yaxshi bo’lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to’g’ri tahlil qilish bo’yicha hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshdagi bolalarni yaxshi ishlar qilishga o’rgatishda aynan ertak qahramonlaridan foydalanish

maqsadga muvofiq. Masalan, pedagog Zumrad gullarga suv quyib sug`oribdi, deb, bolalarga kim Zumradga o`xshab gullarni sug`oradi,-deb talif etishi, Zumrad sehrigar kampirga yordam beribdi,-deb. Bolalarning o`simlik va hayvonlarni parvarish qilishi, o`yinchog`ini o`rtog`iga berib turishi, tik turgan kishiga joy ko`rsatishi, eng muhimi boshqalarga ko`rsatilgan xizmatdan o`zi xursand bo`lishga o`rgatish orqali kamtarlik, to`g`rilik, halolik va quvnoqlik xususiyatlari tarbiyalanadi. Bu xususiyatlar bolaning sog`lom shaxs sifatida tarbiyalanishi va insonparvar bo`lishining muhim omillaridan hisoblanadi. Zero, insonparvarlik hissi ma`naviy-axloqiy normalari va qoidalarini o`rgatish asosida rivojlanadi.

Maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo`qotib borish zarur. Bunday xolatda bolalarga maqollar bilan murojaat qilish va ularning mohiyatini tushuntirib berish zarur. Masalan, “Manmanlik tuqqan onangga ham yoqmas”, “Maqtanma g`oz, hunaring oz”, “Maqtanchoq — quruq po`choq”, “O`zingni o`zing maqtama, Seni birov maqtasin”. Bu kabi maqollar bilan pedagog bolalarning ayrim ishlarining uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitgan bolalarga nisbatan ishlatib, bolani biror narsani bilmagan o`rtog`iga o`rgatish kerakligini, o`z-o`zini maqtash unga yarashmasligini, yaxshi ish emasligini tushuntiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sofdillik va rostgo`ylikni tarbiyalash orqali, ulardagi yolg`onchilik va vijdotsizlik hislatlarini paydo bo`lishining oldi olinadi. Ba`zi bolalar o`zlari to`qigan, kattalardan eshitgan ertaklarini tushlarida ko`rgandek qilib ko`rsatishga urinadilar. Bunday holda pedagog bolani urushmasdan «Ertak» to`qishni yaxshi bilgani uchun maqtashi kerak. Shunday qilib, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalardagi xarakterning ijobiy na`munalarini, ularning yosh xususiyatlarini e`tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

#### Adabiyotlar ro`yxati

1. Abdullaev A. Milliy xalq o`yinlari va sog`lom avlod tarbiyasi. Zamonaviy ta`lim ilmiy jurnali. – Toshkent, 2017. 9-son– B-66.
2. Ismoilova Z.Q. Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). – Ped. fan. dok. ...dis. avtoref. – Toshkent: O`zPFITI, 2006. – B. 46.
3. Imomov K, Mirzaev T., Sarimsokov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. - T.: O`qituvchi, 1990. - B. 84-99.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalq\\_ijodi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalq_ijodi)